

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY FAOLIYAT VA RASM CHIZISH TEXNIKASINI SHAKLLANTIRISH

Xodjanova Surayyo

DTPI Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

3 bosqich talabasi

Annotasiya: Maqolada tasviriy faoliyatning maqsad va vazifalari, rasm chizish texnikasini bosqichma-bosqich shakllantirish jarayoni, tarbiyachining metodik yondashuvi hamda zamonaviy STEAM texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tasviriy faoliyat, rasm chizish texnikasi, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, bolalar psixologiyasi, pedagogik yondashuv, san'at, rang, shakl

Аннотация: В статье научно раскрыты цели и задачи изобразительной деятельности, поэтапный процесс формирования техники рисования, методический подход воспитателя, а также возможности использования современных STEAM-технологий

Ключевые слова: дошкольное образование, изобразительная деятельность, техника рисования, эстетическое воспитание, творческое мышление, психология детей, педагогический подход, искусство, цвет, форма.

Annotation: The article scientifically reveals the goals and objectives of visual activity, the step-by-step process of developing drawing techniques, the educator's methodological approach, and the possibilities of using modern STEAM technologies.

Keywords: preschool education, visual activity, drawing technique, aesthetic education, creative thinking, child psychology, pedagogical approach, art, color, shape

Kirish: Maktabgacha yosh – bu bolaning shaxsiy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Shu davrda bola atrof-muhitni kuzatish, idrok etish, his qilish va o'z fikrini ifoda etish orqali ijodiy faoliyatga kirishadi. Tasviriy faoliyat, xususan, rasm chizish bu jarayonning ajralmas qismi bo'lib, bolaning estetik didini, badiiy tasavvurini, kuzatuvchanligini va motorik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat darslari bolaning nafaqat san'atga bo'lgan qiziqishini, balki tafakkurini, nutqini va hissiy olamini boyitishda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois, bolalarda rasm chizish texnikasini shakllantirishda pedagogik yondashuv, yosh xususiyatlarini hisobga olish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy faoliyat — bu bolaning estetik idrokini rivojlantirish, o'z fikrini badiiy shaklda ifodalash, mavjud voqelikni obrazli tarzda aks ettirish faoliyatidir. Bu faoliyat san'at pedagogikasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda bola real dunyoni rasm, haykalcha, rang va shakl orqali ifodalaydi.

Psixolog L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, bola ijodiy faoliyat jarayonida “yaqin rivojlanish zonasi” orqali o'z intellektual va hissiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, A.V. Bakushinskiy, V.A. Suxomlinskiy va E.I. Ignateva kabi olimlar tasviriy faoliyatning bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o'рни haqida chuqur ilmiy izlanishlar olib borganlar. Tasviriy faoliyatning asosiy maqsadi — bolalarda estetik his-tuyg'ularni, go'zallikka muhabbatni, ijodiy tafakkurni va mustaqil fikrlashni shakllantirishdan iborat. Bolalarda rasm chizish texnikasini bosqichma-bosqich shakllantirish kerak. Har bir yosh davrining o'ziga xos psixologik va fiziologik xususiyatlari mavjud. Pedagogik jarayonning samaradorligi tarbiyachining yondashuviga bevosita bog'liq. Tarbiyachi bolaga erkin ijodiy muhit yaratib, uni rag'batlantirishi, maqtashi va yo'naltirishi zarur. Rasm chizishda bolaga tanqidiy emas, balki qo'llab-quvvatlovchi yondashuv muhimdir. Psixologik qulay muhit bolaning ishonchini oshiradi va ijodkorlikni rag'batlantiradi.

Bugungi kunda tasviriy faoliyat jarayonida STEAM yondashuvi, raqamli texnologiyalar, interaktiv doskalar, 3D illyustratsiyalar va raqamli rasm chizish

dasturlari qo'llanilmoqda. Bu usullar bolalarning qiziqishini oshirib, ularning vizual idrokini kuchaytiradi. Rasm chizish — bu faqat tasviriy ko'nikma emas, balki estetik tarbiya vositasi hamdir. Go'zallikni sezish, san'atni qadrlash, tabiat va inson go'zalligini his qilish bola ma'naviy dunyosini boyitadi. Tarbiyachi bolalarga mashhur rassomlar asarlarini ko'rsatish, tabiat manzaralarini kuzatish, milliy naqshlar bilan tanishtirish orqali estetik tarbiyani amalga oshiradi. Bolalarda rasm chizish texnikasini boyitish uchun turli usullardan foydalanish mumkin:

Akvarel va guash bo'yoqlarda ishlash;

Applikatsiya va kollaj texnikasi;

Loy va plastilindan haykalchalar yasash;

Cho'tkasiz texnikalar (barmoq, tampon, paxta bilan chizish);

Grafik rasm chizish (qalam, pastel, rangli qalam bilan).

Har bir texnika bolada alohida estetik idrokni shakllantiradi va ijodiy fikrni rivojlantiradi. Tarbiyachi bolalarda rasm chizishga bo'lgan qiziqishni uyg'otuvchi asosiy shaxsdir. U mashg'ulotni bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etadi. Tarbiyachi har bir bolani individual tarzda qo'llab-quvvatlashi, uning mehnatini qadrlashi kerak.

Xulosa Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyatni to'g'ri tashkil etish — ularning estetik, intellektual, hissiy va ijodiy rivojlanishining muhim omilidir. Rasm chizish texnikasini shakllantirish orqali bola dunyoni obrazli idrok etadi, o'z his-tuyg'ularini ifoda etadi va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Pedagog bu jarayonda rahbar, yo'naltiruvchi va ilhom manbai bo'lishi lozim. Tasviriy faoliyatni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish esa bolalarning san'atga qiziqishini yanada oshiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ignateva E.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyatni rivojlantirish metodikasi. – Moskva, 2002.
2. Karimova V.M. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2018.
3. Rasulova M. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.

4. Tursunov S. Maktabgacha pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5. Nazarova N. Maktabgacha ta'lim metodikasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2020.
6. Ruzieva S. Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish yo‘llari. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2021.

